



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-may

VII-10-63-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Tumanda “Mening bog‘im” loyihibarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagи “Mening bog‘im” loyihibarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi 156-sonli qarori qarorlari ijrosini ta’minlash hamda Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Samarqand viloyati boshqarmasining 2025-yil 5-maydagи 01-2050-sonli xati muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24- moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi yettinchi chaqiriq o‘ninch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Samarqand viloyati boshqarmasining 2025-yil 5-maydagи 01-2050- sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2024-yil 26-martdagи “Mening bog‘im” loyihibarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi 156- sonli qarori asosida tumandagi “Qoqsoy” MFY “Qoqsoy” qishlog‘i hududidan 2,0 hektar yer maydoni “Tashabbusli budjet” jarayonida fuqarolar tomonidan qoldirilgan takliflar “ovoz berish” jarayoni yakunida “g‘olib” deb topilganligi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov) tumandagi “Qoqsoy” MFY “Qoqsoy” qishlog‘i hududidan 2,0 hektar yer maydonida “Mening bog‘im” loyihasi uchun ajratilgan mablag‘lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli ishlatalishi hamda samarali foydalanimishini ta’minlasin.

4. Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligining Axborot xizmati (J.Safarov) va tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (I.Vohidov)ga “ovoz berish” jarayonida “g‘olib” deb topilgan taklif va undagi shakllangan tadbirlarning

moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Xolova), tuman hokimining o'rinnbosarlari (N.Jo'lmamatov, M.Rasulov, B.Sulaymonov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 22-maydagi
VII-10-63-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**2025-yilda o‘tkazilgan “Mening bog‘im” loyihasi doirasida g‘olib bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha
MANZILLI RO‘YXAT**

Nº	Loyiha ID raqami	Hudud nomi	Tuman nomi	Obyekt manzili (mahalla, ko‘cha)	Loyiha doirasida amalga oshirilishi lozim tadbirlar mazmuni)	Loyiha qiymati (mln. so‘m)
1	051390682008	Samarqand	Kattaqo‘rg‘on	“Qoqsoy” MFY “Qoqsoy” qishlog‘i	Yashil bog‘ tashkil etish, sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yish va dam olish maskanlariga aylantirish	250,0